DAVLAT TA'LIM MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA ICHKI AUDITNING HUQUQIY ASOSLARI

Axmedov Rustam Norqulovich,
TDIU mustaqil izlanuvchi


Annotatsiya. *Mazkur ishda davlat ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va ichki auditning huquqiy asoslari, ularning tashkiliy-uslubiy jihatlari hamda amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, xususan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun, Byudjet kodeksi, "Davlat moliyaviy nazorati to'g'risida"gi normativ-huquqiy hujjatlar hamda Moliya vazirligi va tegishli vazirliklar tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar asos qilib olingan. Shuningdek, davlat ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslardan oqilona va maqsadli foydalanishni ta'minlash, byudjet mablag'larining shaffofligi va hisobdorligini oshirishda ichki audit tizimining o'rni yoritib berilgan. Buxgalteriya hisobi va ichki auditning o'zaro bog'liqligi, ularning moliyaviy intizomni mustahkamlashdagi ahamiyati hamda nazorat mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari ilmiy asosda bayon etilgan.*

Kalit so'zlar. *Davlat ta'lim muassasasi, buxgalteriya hisobi, ichki audit, huquqiy asos, Byudjet kodeksi, moliyaviy nazorat, davlat moliyasi, byudjet mablag'lari, moliyaviy intizom, shaffoflik, hisobdorlik, ichki nazorat tizimi, normativ-huquqiy hujjatlar.*

Budjet tashkiloti - zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun Davlat budjetidan


mablag‘ ajratish nazarda tutilgan va bu mablag‘ moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo‘mitasi, idora, davlat tashkiloti.

Budjet tashkilotlari daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi bo‘yicha budjet va budjetdan tashqari mablag‘lar buxgalteriya hisobini O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” gi Qonuniga va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining uslubiy ko‘rsatmalariga hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq tashkil qiladilar. Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralari, zarur hollarda, o‘zlarining tizimidagi budjet tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda buxgalteriya hisobining umumiy qoidalarini qo‘llash tartibi to‘g‘risida ko‘rsatmalar ishlab chiqarishlari mumkin.



1 – chizma. Davlat ta’lim muassasalari buxgalteriya hisobi axboroti foydalanuvchilari .

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishdan maqsad foydalanuvchilar (ichki, tashqi) ni daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi jarayoni bo‘yicha o‘z vaqtida, to‘liq hamda aniq buxgalteriya va moliyaviy axborotlari bilan ta’minlab berishdan iborat.



2–Rasm. Buxgalteriya hisobining alohida xususiyatlari.

1. Budjet tashkilotlarda har yili belgilangan tartibda budjet mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali tuziladi va tasdiqlanadi. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi xarajatlar smetasi ijrosini ta’minlab beradi. Bunda xarajatlarni iqtisodiy tasnifi asosida smeta doirasida xarajatlar moliyalanadi va amalga oshiriladi. Bulardan tashqari budjetdan tashqari mablag‘lar manbaalari (ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov kontrakt shakli mablag‘lari, budjet tashkilotlari rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari, tibbiyot muassasalari moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari, budjetdan tashqari boshqa mahsus mablag‘lar) bo‘yicha daromadlar va xarajatlar smetalari tuziladi va ijrosi amalga oshiriladi. Shuning

uchun budjet tashkilotlari buxgalteriya hisobini yuritishda smetalar ijrosi nazorat qilinadi.

2. Kassa va xaqiqiy xarajatlar hisobini yuritilishi – Budjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar ijrosi jarayonida kassa va xaqiqiy xarajatlar hisobi yuritiladi. Budjet tashkilotlari tomonidan g‘aznachilikdagi shaxsiy hisob varaqlardan xarajatlarni to‘lab berilishi kassa xarajatlari ko‘rinishida hisobda aks ettiriladi. Masalan ish haqi bo‘yicha moliyaviy majburiyatlar to‘lab berilganda ya’ni tegishli soliqlar va ajratmalar o‘tkazilganda xodimlar plastik kartochkalariga ish haqi o‘tkazib berilganda yoki kassadan berilganda kassa xarajati ko‘rinishida tegishli daftarlarda, hisobotlarda aks ettiriladi. Budjet tashkilotlari tomonidan xarajatlar smetalari doirasida amalga oshirilgan lekin to‘lab berilmagan xarajatlar haqiqiy xarajat ko‘rinishida hisobda aks ettiriladi. Masalan smeta doirasida ish haqi hisoblangan lekin to‘lab berilmagan yoki ish, hizmatlar ko‘rsatilgan, tovarlar olingan lekin to‘lab berilmagan xarajatlar haqiqiy xarajat ko‘rinishida tegishli daftarlarda, hisobotlarda aks ettiriladi. Kassa va haqiqiy xarajatlar hisobini yuritish uchun alohida 294 - shakldagi daftar yuritiladi shuningdek hisobot shakllarida ham aks ettiriladi.

3. Budjet tasnifi asosida hisobni tashkil etilishi va hisobotlarni shakllantirilishi - Budjet tashkilotlari tomonidan tuzilgan daromadlar va xarajatlar smetalari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazriligida 2010 yil 11 oktyabrda 2146-son bilan ro‘yxatga olingan “O‘zbekiston Respublikasi Budjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha Yo‘riqnoma” asosida 1-gurux, 3-gurux, 3-gurux, 4-gurux xarajatlari xarajatlarning iqtisodiy tasnifi bo‘yicha aks ettiriladi hamda ijrosi xaqidagi buxgalteriya hisobotlari shakllarida ham budjet xarajatlarining iqtisodiy tasnifi bo‘yicha axborotlar shakllantiriladi.

4. Buxgalteriya hisobi va hisobotlarni me’yoriy hujjatlarga qat’iy amal qilingan xolda yuritilishi - Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish

va moliyaviy hisobotlarni tuzish “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni va boshqa bir qator qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Hukumati hamda Moliya vazirligining bir qancha me’yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq olib boriladi. Shu bilan birga qonunchilikka muvofiq budjetdan tashqari daromadlar aniq manbaalari bo‘yicha shakllantiriladi va sarflanishi yo‘nalishlari belgilanadi. Masalan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 414 – son “Budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq budjet tashkilotlari rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirishi manbaalari belgilangan. Shuningdek rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari birinchi navbatda kreditorlik majburiyatlarni tugatish yo‘naltirilishi, agarda kreditorlik qarzdorlik mavjud bo‘lmasa kamida 75 foizi moddiy texnika bazasini mustaxkamlashga, ko‘pi bilan 25 foizgacha hodimlarni moddiy rag‘batlantirishga yo‘naltirilishi belgilangan. Buxgalteriya hisobini yuritishda yuqorida keltirib o‘tilgan qonunchilik bilan belgilangan me’yorlarga qatiy amal qilinadi. Umuman budjet tashkilotlarida hisobni tashkiliy, texnik, uslubiy jihatlari me’yoriy-xuquqiy hujjatlarga qat’iy amal qilgan holda tashkil etiladi.

Operatsiyalar hajmiga qarab jamlanma qaydnomalarni tuzish talab qilinmaydigan tashkilotlarda subschyotlar korrespondensiyasi alohida memorial orderlarda (274-son shakl) yuqorida keltirilgan doimiy raqamlar berilib ko‘rsatiladi.

Alohida memorial orderlar operatsiyalarning sodir bo‘lishiga qarab, ammo boshlang‘ich hisob hujjatlari olingandan keyingi kundan kechiktirmasdan ayrim hujjatlarga yoki bir xildagi hujjatlarning bir guruhi asosida tuziladi. Subschyotlar korrespondensiyasi memorial orderlarda ikki yoqlama yozuv qoidasiga muvofiq yozib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. 23.12.2013 y. O‘RQ-360-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘isidagi” qonuni. 2024 yil 25 dekabr, O‘RQ-1011-son
3. Mehmonov S.U. Byudjet hisobi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent.: Fan va texnologiyalar. 2012.
4. Ostonokulov A.A. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish. Monografiya. ISBN 978-9943-7453-2-2 T.: “VNES’HEWESTPROM” nashriyoti, 2021,208 b.